



TRIKOTAJ MATOSIDAN BOLALAR KIYIMINI LOYIXALASH

Asaka tuman 1-son Texnikumi maxsus fan o'qituvchisi

Mirzaabdullayeva Feruzaxon Iminjonovna

998370581

Annotatsiya

Ushbu maqolada trikotaj matolaridan bolalar kiyimlarini loyihalashning ilmiy-nazariy asoslari va amaliy usullari tahlil qilinadi. Trikotaj matosining cho'ziluvchanligi, elastikligi va deformatsiyalanish darajasining kiyim konstruksiyasiga ta'siri o'rganilgan. Bolalar tana tuzilishining yoshga doir o'zgarishlari va harakat faolligini hisobga olgan holda ergonomik kiyimlar yaratish bo'yicha tavsiyalar berilgan. Shuningdek, matoning relaksatsiya jarayonlarini hisobga olgan holda konstruktiv qo'shimchalarni hisoblash metodikasi keltirilgan.

Kalit so'zlari: kompleks, psixologik va axloqiy, komplekt, sport uslubi, koketka, applikatsiya, furnitura, taqilma, tabiiy va sun'iy mo'ynalar, siluet, trapetsiyasimon

Bolalar kiyimiga qo'yiladigan talablar. Bolalar kiyimini loyihalash - murakkab ijodiy jarayondir, chunki u bolalar rivojlanishiga oid bilimlar kompleksini, ularni modaga nisbatan psixologik va axloqiy holatini talab qiladi.

Bundan tashqari, kiyim bolalar uchun katta tarbiyaviy vositadir. Chiroyli, qulay va yengil kiyim yaxshi did rivojlantiradi, kayfiyatni ko'taradi, batartib bo'lishga o'rgatadi va h.k. Bunda gazlama tanlashga katta ahamiyat beriladi. Gazlamaning tuzilishi qator gigienik talablarga javob berishi kerak: issiq va gigroskopik bo'lishi, yaxshi tozalanishn, yuvilishi, dazmollanishi kerak.



Qizlar uchun ust kiyimlar konstruktsiyasi murakkab bo'lmashligi kerak. Bu kiyimlar tayyorlash jarayonida ishlov berishga qulaylik talablariga mosligi ishlab chiqarishda iktisodiy samaradorlikni oshirishga ta'sir etadi.

Yengil sanoat xodimlarining barchasi oldiga, xususan, chiroyli, qulay va amaliy jihatdan ma'qul bo'lgan bolalar kiyimini keng assortimentda loyihalaydigan tashkilotlar oldiga qo'yilgan masala muhim va mas'uliyatlidir.

Bola voyaga yetgan sari kiyimining kompozitsion yechimlari, bezatish usullari va komplektlanishi o'zgarib turadi.

Bolalar kiyimining shakli kattalar kiyimining nusxasi bo'lmashligini va barcha yoshdagi guruhlarga bir hil bo'lmashligini hisobga olgan holda sanoat sharoitida bolalar kiyimi yosh xususiyatlariga mos besh guruh uchun loyihalanadi.

Bolalar yosh guruhlari. Quyida yoshga oid guruhlar bo'yicha qizlar tipaviy figuralarining tasnifi keltirilgan.

Yosh guruhlari	Guruxlarining taxminiy chegarasi yoshidagi .	3
yoshgacha		

Maktabgacha yoshdagi	3 yoshdan 7 yoshgacha
----------------------	-----------------------

Kichik maktab yoshidagi	7 dan 11 gacha
-------------------------	----------------

Yuqori maktab yoshidagi	11 dan 14,5 gacha
-------------------------	-------------------

O'smirlar	14,5 dan 18 gacha
-----------	-------------------

Yosh guruzhlarining hammasida bolalar kiyimi uchun sport stili xosdir. Shuni ham hisobga olish kerakki, bolalar voyaga yetgan sari, kiyimda sport uslubi oshaveradi.



Birinchi va ikkinchi yosh guruhlarga mansub kiyimning ansamblga oid yechimlari obrazli yoki uslubiy birligiga asoslanibgina emas, balki maqsadga moslik, amaliy jihatdan ma'qullik va qulaylik talablari asosida quriladi.

Yasli va maktabgacha yoshdagi bolalar kiyimi ayniqsa bu yoshda serg'ayrat bolalarning harakatini cheklamaydigan darajada to'la-to'kis shaklga ega bo'lishi kerak. Bu yosh guruhlardagi qizlarga koketkalar orqali xar xil shaklda bo'lingan trapetsiyasimon siluet ma'qulroqdir. Bolalar kiyimi to'la-to'kis, yengil, ixcham, gavdaning o'sishi hisobga olingan bo'lishi kerak. Maktabgacha yoshdagi qizlar paltosi ko'pincha an'anaviy kichik o'tqazma yoqali shaklga ega bo'ladi. Bezaklari mag'iz va applikatsiyalar ko'rinishida.

Kuzgi-bahorgi paltolarga qishki paltolarga qaraganda pishiqroq gazlamalar ishlatiladi.

Chaqqon harakatlar uchun kombenezon, yarimkombinezon, kurtkalar tavsiya etiladi. O'quvchining garderobiga maxsus buyumlar kam kiradi, bular maktab formasi, mehnat mashgulotlariga, sportga va h.k. mo'ljallangan kiyimlardir.

Bu yosh guruhidagi bolalar kiyimining assortimenti maktabgacha yoshdagi assortimenta nisbatan ancha keng Kichik maktab yoshidagi qizlar paltosi asosan to'g'ri yoki etagi sal kengaygan bo'ladi. Baland bo'yli qizlar paltosi bel chizig'i qirqmali, etagi kengaygan, odatda, cho'ntakli bo'lishi mumkin. Kuzgi-bahorgi paltolar bezagi har xil qaviqqatorlar, o'ziga xos furnitura va taqilmalar shaklida bo'lishi mumkin. Qishki paltolar bezagi sifatida tabiiy va sun'iy mo'ynalar ishlatiladi.

Yoqalari ko'pincha kichik razmerli o'tqazma va kapyushon-yoqalardir.

Katta yoshdagi o'quvchilarga figurasining jadal shakllanishi va bo'ylarining tez o'sishi xosdir. Bu yoshdagi bolalar figurasi mutanosibli bo'yicha dolixomorf tipiga yaqinroh. Ular yetarli darajada qomatli. Qizlarda bu yoshda nazokat paydo



bo'ladi- ko'kragi, bo'ksasi shakllanadi. Bolalarning yoshiga xos xususiyatlar hisobga olingan xolda kiyim loyihalanadi.

Bolalar kiyimi siluetlari. Katta yoshdagi qizlar yelkali buyumlari (palto, kalta palto) ikkita siluet shaklida loyihalanadi: sal yopishib turadigan va to'g'ri.

Sal yopishib turadigan kiyim aniqroq figuraning asosiy konturlarini belgilab turadi. Bel chizig'i belband, baxyaqator, qirqim, taqilmaning joylanishi orqali ta'kidlanadi. Buyum detallari (yoqa, qopqoqlar, bort qaytarmasi) modaga muvofik shakllantiriladi, lekin ko'pincha ravon chizikli bo'ladi. Yoqalar: tik, xomut, qaytarma.

To'g'ri siluetli kiyimlar, odatda, sport uslubiga ega. Bunday palto, kalta paltolarda ko'pincha oddiy shakldagi qaytarma yoqalar, kapyushon-yoqalar, koketkalar, qopqoqlar, belbandlar yoki belbog'lar, pogonlar ishlatiladi. Yenglari utqazma yoki reglan.

O'smir qizlarga figura va buylarining qat'iy shakllanishi xosdir. Bu yoshdagi qizlar sport bilan aktiv shug'ullanadi va juda g'ayratli. Ularnng modaga munosabati tez-tez o'zgarib turadi. Ular qandaydir darajada kattalarga taqlid qiladilar va shu bilan birga o'z shaxsini namoyon qilish maqsadida ajralib turishni istaydilar.

O'smirlar kiyimi yoshlar kiyimining birinchi guruhiga kiradi va ular uchun yoshlar modasining asosiy qonun-qoidalari to'g'ri keladi.

O'smir qizlar yelkali buyumlari uch asosiy siluet shaklida loyihalanadi: yopishib turadigan (hajmi katta bo'lmagan buyumlar), to'g'ri. (hajmi har xil) va yenglari har xil bichimdagi (utqazma, reglan, yaxlit bichilgan kombinatsnyalangan va erkaklar ko'ylagining yengiga uxshash) trapetsiyasimon.



Yopishib turadigan siluet shakl, qizlar qomatini ta'kidlashga imkon beradi va taqilma joylanishi, belbog'lar, qirqimlar, yubkaning shakli va h.k. orqali xipcha bellarini ko'rsatishga imkon beradi. Ushbu siluet shakl klassik modellar va folklor modellar yechimida qo'llanadi.

Har xil hajmli to'g'ri siluet shakl ifodali sport uslubiga ega.

Trapetsiyasimon siluet shakl bashang turdagi o'tkirroq modellar loyihalashda ishlatiladi.

Ushbu yosh guruhidagi kiyimlar uchun ansamblli yechim xosdir. Yoshlar kostyumining komplektliligi va ko'p qavatlilik printsipli har xil kiyimlardan ansambl tuzishga imkon yaratadi. Bu printsipga rioya qilmasdan moda o'zgarishlarini har doim hisobga olgan holda kiyimning eng muhim sifatlari bo'lgan qulayliklarni, universallikni, maqsadga muvofiqlikni, komfortlikni ta'minlash mumkin emas.

Umuman olganda bolalar kiyimining asosiy stili - bu sport stilidir.

Kundalik va bashang kiyimlarda folklor va klassik stillar elementlari ishlatiladi.

Trikotaj polotnolar yumshoq, elastik bo'lgani uchun yopishib turganda ham

harakatga halaqit bermaydi. Ular gigiyenik jihatdan havo o'tkazuvchan, namni shimuvchan

bo'ladi, lekin trikotajni tikish vaqtida to'qima petlyalar so'kilib ketishi mumkin. Bir qavat to'qilgan trikotaj buralib ketishi natijasida uni tikish ancha qiyin. Gazlamalarning tuzilishi, xossalari qarang model tanlash tikuvchilik kasbining asosiy talablaridan biri hisoblanadi.



. Trikotaj - (fransuzcha «tricotage», ya'ni «tricoter» - to'qimoq) bir yoki ko'plab iplarning trikotaj mashinasida hosil qilingan halqalarning o'zaro chalishishidan hosil qilingan materialdir. Boshqa to'qimachilik mahsulotlaridan farqli ravishda trikotaj barcha yo'nalishlar bo'yicha cho'ziluvchan bo'lib, shakl va o'lchamlarini o'zgartirish xususiyatiga ega. Uning halqalardan tashkil topgan tuzilishi trikotajda yumshoqlik va g'ijimlanmaslikni ta'minlaydi. Trikotaj, shuningdek sun'iy mo'yna, to'rlar va shu kabi turli mahsulotlarni ishlab chiqarishda keng qo'llanadi.

Trikotaj tolaviy tarkibi, tuzilishi, pardoqlash va mo'ljallanganligiga ko'ra sinflanadi. Ishlab chiqarishda asosan paxta, jun, kimyoviy tolalardan, hamda ularning aralashmasidan foydalaniladi va bir turdagi tolalardan, aralash tolali va har xil turdagi tolalar aralashmasidan to'qiladi. Trikotaj buyumlar havo va namlikni oson o'tkazuvchanlik xossasiga ega bo'lib, ularni ishlab chiqarishda matolarga nisbatan sintetik xom-ashyo ko'p qo'llanadi. Tuzilishiga ko'ra ko'ndalang (kulirli) va tik to'qilgan, bir fonturli va ikki fonturli trikotaj farqlanadi. Ikki fonturli trikotaj qalinroq va og'irroq bo'lib, ziylari buralib qolmaydi, asosan ustki kiyimlar ishlab chiqarishda qo'llanadi.

Trikotaj buyumlarni ishlab chiqarish quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi:

1. Kalava va iplarni to'qishga tayyorlash.
2. To'qish – kalava va iplarni to'qish mashinalarida polotno, kuponlar va buyumlarga qayta ishlash.
3. Polotno, kuponlar va buyumlarni pardoqlash.
4. Model eskizlari, konstruksiyasi va andozalarini ishlab chiqish. Loyihalashtirilayotgan mahsulotlarning hamma o'lchamlari uchun andozalarni ko'paytirish. Andozalar joylashmasi ishlab chiqish va mahsulot uchun polotno sarfini normalash.



5. Polotno, kuponlar, qo'shimcha materiallarni bichishga tayyorlash. Ularni bichish.

6. Tikish va tayyor mahsulotni yakuniy pardozlash. Tayyor mahsulotning sifatini tekshirish.

Yuqorida sanab o'tilgan texnologik bosqichlar ko'p hollarda bir korxonaning o'zida bajariladi. Lekin ba'zi korxonalar o'z bo'yash-pardozlash sexlariga ega emaslar, shuning uchun polotnoni bo'yash bilan bog'liq bo'lgan texnologik jarayonlar boshqa maxsus bo'yash korxonalarida amalga oshiriladi.

Tikotaj buyumlari detallarini biriktirishda, ularning ziylariga ishlov berishda va pardozlashda asosan ipli usuldan, shuningdek payvandlash va yyelimlab biriktirish usullaridan ham foydalaniladi.

Ipli usulda turli baxya va baxyaqatorlardan iborat bo'lgan choklar qo'llanadi

Trikotaj buyumlari konstruksiyasi modelga, trikotaj polotnosining turi va xususiyatiga ko'ra turli bo'lib, detallar soni bittadan (maykalarda) bir nechtagacha bo'lishi mumkin. Asosiy detallar bir va bir necha qismdan iborat bo'lib, turli shaklli, vitochkali va bezak chokli bo'lishi mumkin. Trikotaj buyumlarining asosiy detallarida hajmiy shakllar, shuningdek, trikotajga shakl berish orqali hosil qilinadi.

Trikotaj buyumlarida taqilmalar old bo'lak pastki qirqimiga yetgan yoki yetmagan bo'lib, qirqim pastgacha yetgan bo'lsa - bortga ishlov berish, pastga yetmagan bo'lsa – taqilmaga ishlov berish deyiladi.

Trikotaj kiyimlar yenglari bir detaldan iborat bo'ladi.

Yoqalar yaxlit bichilgan yoki ostki va ustki yoqadan iborat. Shuningdek, bir qavatli, maxsus yassifangli mashinalarda to'qilgan, ziylariga ishlov berilgan bo'lishi mumkin.



Astar ustki trikotaj mahsulotlariga ishlov berishda qo'llanilib, ekspluatatsiya jarayonida kiyim chidamliligini oshiradi. Qotirmalar erkaklar sorochkalari yoqalari va manjetlariga ishlov berishda qo'llanadi. Detallarning qirqimlar bo'ylab cho'zilishini oldini olish uchun chok davomida tasma qo'shib tikiladi, masalan, yelka choklari, yoqani o'mizga biriktirish choki kabilar.

Buyumlarga ishlov berish jarayoni belgilangan ketma-ketlikda detallarni biriktirish, ularni pardozlash va so'nggi namlab-isitib ishlov berish bosqichlaridan iborat. Ishlov berish usullarini tanlash buyum konstruksiyasi, trikotaj polotnosining xususiyatlari, asbob-uskuna va moslamalar, texnologik rejimi va parametrlariga bog'liq. Trikotaj buyumlarga ishlov berish ketma ketligi quyidagi sxema orqali ifodalanishi mumkin

XULOSA

Trikotaj matosidan bolalar kiyimini loyihalash jarayoni matoning mexanik xususiyatlari va bolalar antropometriyasining uyg'unligiga asoslanishi kerak. Ilmiy asoslangan loyihalash usullari quyidagilarga xizmat qiladi:

1. Kiyimning ergonomik qulayligini oshiradi.
2. Mato sarfini optimal darajaga keltirish orqali ishlab chiqarish tannarxini kamaytiradi.
3. Kiyimning ekspluatatsiya muddatini (shakl saqlash xususiyatini) uzaytiradi. Xulosa o'rnida aytish mumkinki, trikotaj kiyimlari konstruksiyasini ishlab chiqishda mato turiga qarab differentsiallashtirilgan qo'shimchalar tizimini qo'llash sanoat samaradorligini kafolatlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ismoilov, A.A. (2020). Yengil sanoat mahsulotlarini konstruksiyalash va modellashtirish. Toshkent: Cho'lpon.



2. Musaev, S. S. (2021). Trikotaj matolarining texnologik xossalari. Ilmiy-amaliy qo‘llanma.
3. Aldrich, W. (2015). Metric Pattern Cutting for Children's Wear and Babywear. Wiley-Blackwell Publishing.
4. O‘zbekiston Davlat Standarti (O‘zDSt). Bolalar kiyimlari: o‘lchamlar va texnik talablar. 2019-yil tahriri.
5. Shcherbakova, N. V. (2018). Design and manufacture of knitted products. Textile Research Journal.